**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALIShER NAVOIY NOMIDAGI TOShKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**
**_________ S.Normamatov**
**“31” __01__ 2025-y**

# 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi kunduzgi ta’lim shakli bitiruvchi 4-kurs kurs talabalari uchun 2024/2025-o‘quv yilida bitiruv malakaviy ishi himoyasi va ixtisoslik (majburiy) fanlaridan (Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari, O‘zbek tili tarixi, O‘zbek adabiyoti tarixi)dan o‘tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi

# D A S T U R I

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |

**Toshkent – 2025**

Ushbu dastur 2024/2025-o'quv yilida 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi kurs talabalari uchun 2021/2022-o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi **Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari, O'zbek tili tarixi, O'zbek adabiyoti tarixi** (majburiy) fanlarining tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tuzilgan.

**TUZUVCHILAR:**

**N.Jabborov** — ToshDO'TAU "O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor

**I.Azimova** — ToshDO'TAU "Nazariy va amaliy tilshunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent

Ushbu dastur universitetning 2025-yil "___" yanvardagi __sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.



## KIRISH

Ushbu dastur 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi kurs talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-avgustdagi 365-son buyrug'i bilan tasdiqlangan malaka talabi va o'quv rejasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-son buyrug'i, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar" haqidagi 225-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqildi.

60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi kurs talabalari uchun YDA sinovi sifatida ikki shakl belgilangan:

1) fanlararo test (60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli bitiruvchi kurs talabalari uchun 2024/2025-o'quv yilida majburiy fanlar blokidagi **Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari, O'zbek tili tarixi, O'zbek adabiyoti tarixi,** fanlari tanlab olindi);

2) bitiruv malakaviy ishi himoyasi.

### I. 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar

**Talaba:**

– qo'lyozma va toshbosma matnlarni o'qish malakasining shakllanishi, ularni tahlil qila olish, matn tarixi tushunchasini bilish va matn tahlilida qo'llay olish, asliyat va tabdil muammolarini yecha olish ko'nikmasini hosil qilish;

– o'zbek tili tarixining fonetik, grafik, leksik, morfologik, morfemik, sintaktik xususiyatlarini to'la o'zlashtirib, fikrlarini asoslay olishi, fikrini misollar bilan dalillash va mustaqil xulosa chiqa olishi;

– o'zbek adabiyotining barcha davrlarini mukammal o'rganib, yozuvchi va shoirlarning faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'liq bilishi, asarlaridan parcha keltirib tahlil qila olishi, fikrlarini nazariy dalillay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

## II. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining mavzulari mazmuni

## "MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK ASOSLARI" FANIDAN MAVZULAR MAZMUNI

Kirish. Matnshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Manba va matn tushunchasi. Matn talqini.

Matnshunoslikning filologik fanlar bilan munosabati. Matnshunoslikning tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Manbashunoslikning asosiy yo'nalishlari: nazariy va amaliy matnshunoslik. Matnshunos va manbashunoslik fan sifatida. Matnshunos va matnchi terminlari. Manba va matnlarni o'qish va o'qitish usullari.

O'zbek matnshunosligi shakllanishining tarixiy ildizlari va takomil bisqichlari. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. Kitobning paydo bo'lishi.

Islom va yozuv. Islom va arab yozuvining turkiy xalqlar madaniyatidagi o'rni.

Arab xati O'rta Osiyo aholisining rasmiy xati sifatida. Arab xatining O'rta Osiyo aholisi tomonidan o'zlashtirilishi, ikki va to'rt ko'rinishli harflar imlosi, arab xatiga qo'shimcha qo'shilgan harflar.

Qur'oni karim matnining yig'ilishi va ko'chrilishi tarixi. Qur'oni karim suralarining tosh, teri, suyak kabilarga yozib olininishi, Qur'onni asliyatdagidek saqlash tajribasining matnshunoslikka ta'siri. Qur'on va adabiy matnlar munosabati.

Yil hisobi. Hijriy va qamariy, shamsiy, milodiy yil hisoblari.

Islom ta'sirida shakllangan san'at turlari. Abjad, ta'rix, muammo, harf san'ati, hurufi dalolat.

Matn ko'chirish asboblari. Qog'oz, qamish, labagi, los, abro', lavh.

Qo'lyozma kitoblarning ichki tuzilishi va bezaklari. Zarvaraq, ichki unvon, poygir, hoshiya, jadval, tammat.

VIII-XIII asrlar Xorazm adabiy muhiti manbashunosligi. Arab tilidagi adabiy manbalarning qadim Xorazm adabiy muhitidagi o'rni. Nazmiy va nasriy manbalarning mavzuiy tasnifi. Adabiy manbalarning matniy-qiyosiy tadqiqi.

Imom al-Buxoriy buyuk muhaddis va olim. Imom Buxoriy hayoti va faoliyati, "Al-jomi' as-sahih" asari, hadislarni sahih va nosahihga ajratish. Hadis matnlarini saralash usullari. Muhaddis olimlar Qur'on va Hadis ilmi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Imom Termiziyning hadis matnlarini o'rganish ishiga qo'shgan ulushi. Hadislarning adabiy matnda tutgan o'rni.

XIII-XIV asrlarda yaratilgan asarlar manbalari va matniy tadqiqi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asarlari qo'lyozmalari.



Temuriylar davri matnshunosligi (XVasr). Temuriylar davridagi adabiy hayot. Boysung'ur Mirzo – ilm-adab ahlining homiysi. Alisher Navoiyning manshunoslik tarixida o'ziga xos o'rni. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti matnlarining o'ziga xosligi, matnshunoslikda o'rganilishi.

Temuriylar davri munshaotnavisligida matn tuzish an'anasi. Munshaotlar genezisi va temuriylar davri munshaotnavisligi. Abdulloh Marvorid va uning temuriylar davri madaniy hayotidagi o'rni.

O'rta Osiyoda shakllangan xattotlik maktablari. Buxoro, Toshkent, Samarqand, Hirot xattotlik maktablari.

Tarixiy obidalarni o'rganishda xat turlarining ahamiyati. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz tarixiy obidalarida xat turlari.

Alisher Navoiyning xat va kotiblarga munosabati. «Xamsa» dostonlarida kotiblar ta'rifi va kotiblikka talab ifodasi.

XVI-XIX asrlar o'zbek matnshunosligi. Kotiblarning matnga ijodiy yondashuvi masalasi. Turkistonda toshbosmalarning paydo bo'lishi.

Qo'qon xonligi kitobatchiligida shakl va mazmun xilma-xilligi. Qo'qon adabiy muhitida Xudoyorxonning o'rni, Qo'qonda yaratilgan adabiy manbalarning o'ziga xosligi.

Buxoro amirligida adabiy hayot. Buxoro amirligida tuzilgan bayozlarda Yassaviyga izdoshlik ruhiyati.

Muhammad Rahimxon Feruz rahbarligida shakllangan Xiva xonligi adabiy muhiti. Xiva xonligi kitobatchilida an'ana va novatorlik. Kotiblar mas'uliyati. XX asr Xorazm adabiy muhitida bayozlar va tazkiralarning o'rni va ahamiyati.

O'rta Osiyoda toshbosmaning paydo bo'lishi. O'rta Osiyoga litografiya va tipografiyaning kirib kelishi. Toshbosma asarlarning nashr etilishi.

Bayozlar adabiy manba sifatida. Bayozchilikning paydo bo'lishi, tarixi va taraqqiyoti, bayozchilik maktablari.

Tazkirada shoir va muallif munosabati. Tazkirada shoirlarga munosabat. Tazkirar adabiy manba sifatida.

Biografik asarlar – shoir hayotini o'rganishda muhim manba. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", "Xotiroti Mutribiy" kabi asarlari adabiy manba sifatida.

XX asrning birinchi yarmida matnshunos olimlarning soha rivojidagi o'rni. XX asrning birinchi yarmida matnshunoslik taraqqiyotida burilish. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishning shakllanishi va takomili.

Mustaqillik davri matnshunosligi. Matnga yondashuv tamoyillari, OAVda matnshunoslik muammolari.

Zamonaviy matnshunoslik: yutuq va muammolar. Matnlar nashrida ilmiy ko'rsatkichlarning o'rni. Nashr qoidalari va odobi. Shaxsiy arxiv materiallarini o'rganish metodologiyasi. Farqli nusxalar.

Xorijiy matnshunos olimlarining soha taraqqiyotidagi o'rni. Xorijiy matnshunoslikning tadqiqot usullari. Rus matnshunosi Lixachevning matnshunoslikka oid nazariy qarashlari.

Makrotekstologiya tushunchasi. Mikrotekstologiya tushunchasi. Ularning bir-biridan farqli va o'xshash jihatlari.

Matnshunoslikning tadqiq usullari. Matniy tafovutlarni tahlil qilish yo'llari. Tayanch manbani aniqlash mezonlarfi. Matn ko'chirishdagi xatoliklarni aniqlash tahlil qilish yo'riqlari. Muallif matni xatoliklarini aniqlash usuli. Matnni ongli ravishda o'zgartirish holatlari tahlili. Kon'ektura. Qo'shimchalar va tushirib qoldirishlarni aniqlash. Matnlarni tasniflash. Tekstologik belgilarni aniqlash. Matnni tiklash (rekonstruksiya) usullari.

Ishonchli matnni tiklash tamoyillari. Ishonchli matn tiklashda qo'lyozmalar xilma-xilligi, qiyoslash shartlari, muammolari.

Yagona nusxadagi matn tarixini o'rganish. Yagona nusxada saqlanib qolgan matnlar. Paleografik o'qish, matn ustida ishlashning umumiy va xususiy prinsiplari.

Ko'p nusxali matnlarni tadqiq etish. Ko'p nusxali matnlar. Matnlarni xillash, poligrafiyasi hamda yiliga ko'ra tasniflash.

Matn nashrida asliyat va tabdil muammolari. Matnnni tabdil qilish tamoyillari.

Tarjima asarlar matnini o'rganish. Tarjima asarlarning xususiyatlari. Tarixiy davr uchun xos bo'lgan tarjima prinsiplarining o'zgarishi.

Matnshunoslik tahlilida yangicha yondashuvlar. XX asr boshlarida matn tanqidiga e'tiborning ortishi.

Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq ushullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotifagi o'rni. Porso Shamsiyev ilmiy biografiyasi va matnshunoslik faoliyati konsepsiyasi. Olimning ilmiy-tanqidiy matnga oid qarashlari va tadqiq usullari.

«Maorif va o'qitg'uchi» jurnalidagi adabiyot materiallari tadqiqi. «Maorif va o'qitg'uchi» adabiy manba sifatida. Jurnalning davr ijtimoiy-adabiy hayotida tutgan o'rni. Jurnalda chop etilgan nasriy va she'riy asarlar tahlili.

"Tazkirai Qayyumiy"dagi Qo'qon shoirlari asarlarining matniy-qiyosiy tadqiqi. Tazkirachilik tarixi va Qo'qon adabiy muhitida tuzilgan tazkiralar. Po'latjon Qayyumiy – Qo'qon adabiy muhiti tadqiqotchisi. "Tazkirai Qayyumiy" qo'lyozmasining manbaviy tavsifi. "Tazkirai Qayyumiy" qo'lyozmasining matniy tadqiqi.

Manbashunoslik va matnshunoslikka oid lug'atlar tuzish muammosi. Kitobat san'atiga oid atamalarning izohli illyustrativ lug'ati.

Matn tarixining asosiy tushunchalari. Matn, asar, qo'lyozma, qoralama, oqlama. Nusxa, nashr, izvod, muallif niyati va maqsadi.

XX asr o'rtalarida matn tanqidiga oid maqolalarning yuzaga kelishi. A.Qayumov, S.G'aniyeva, V.Rahmonov maqolalari asosida.

Hamid Sulaymon – matnshunos va adabiyotshunos olim. Mumtoz matnlarning matniy tadqiqiga oid asarlari. «Xazoyinul maoniy»ning ilmiy tanqidiy matni.



Mustaqillik davrida amalga oshirilgan adabiy asarlarga yangicha yondashuv. Nashrning asliyat bilan mosligi. Qo'lyozmalar nashrida tanqidiy yondashuv masalasi.

O'zbek mumtoz asarlarining xorijda o'rganilishi. Turkiya, Yevropa xalqlari adabiyotida «Qisasi Rabg'uziy», Navoiy asarlari va «Boburnoma» tadqiqi.

Zamonaviy o'zbek matnshunos olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari. A.Habibullayev, Q.Sodiqov, Sh.Sirojiddinov kabi olimlarning o'zbek matnshunosligiga oid nazariy qarashlari.

## "O'ZBEK TILI TARIXI" FANI BO'YIChA FANIDAN MAVZULAR MAZMUNI

"O'zbek tili tarixi" kursi predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. "O'zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, davrlar osha yetib kelgan qo'lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish.

O'zbek tili tarixi, uning taraqqiyot bosqichlari, til tarixida sodir bo'lgan fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar, til sathlarining til tarixida voqelanishi, qadimgi yozma yodgorliklar va mumtoz manbalarning til xususiyatlari.

Qadimgi turkiy til manbalari, ularning davrlashtilishi bilan bog'liq masalalar. O'rxun-Enasoy yozuvi bitiktoshlarining har biri ustida alohida-alohida maxsus kuzatish olib borish; matnning asli, transkripsiyasi, mazmunini muqoyasa qilish. "Oltun yoruq"dagi so'z birikmalari.

Ko'k turk yozuvi bitiktoshlari, qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklari, turk-budda diniy-falsafiy asarlari va ularning til xususiyatlari, O'rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixi, arab yozuvi va uning joriy qilinishi.

O'zbek tili tarixiga doir yozma manbalarni tahlil qilish, so'zlarni etimologik jihatdan qaysi qatlamga (o'z va o'zlashgan) oidligini aniqlash.

Qadimgi turkiy tilning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli. Bu davr tilidagi fonetik, leksik, grammatik tizimning o'ziga xosligi.

Qadimgi turkiy obidalarning topilishi, o'qilishi. Qadimgi turkiy yozuvlar. Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari. Qadimgi turkiy til leksikasi.

Qadimgi turkiy tilning fonetik va leksik xususiyatlari. Unli va undoshlar tasnifi. Singarmonizm hodisasi.

Qadimgi turkiy til morfologiyasi. Ot so'z turkumi. Sifat, son, olmosh so'z turkumlari. Fe'l so'z turkumi. Ravish va yordamchi so'zlar.

Qadimgi turkiy til sintaksisi: so'z birikmasi va gap. Sodda va qo'shma gaplar.

Eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklarini tavsiflash, eski o'zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalarni tahlil qilish, o'zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, o'zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, qardosh turkiy tillar bilan munosabatini faktik material asosida yoritish.

O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi. O'zbek tilining tarixiy ildizlari. O'zbek adabiy tili va turkiy tillar. O'zbek tili tarixini davrlashtirish xususida o'zbek tilshunoslari dunyoqarashi. Qadimgi turkiy til davri manbalari. O'zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tizimdagi tillarning o'rni.

Eski turkiy til yozma manbalari ustida ishlash. Matnlarni turkumlar, so'z yasalishi va gap turlari nuqtai nazaridan tahlil qilish. Eski o'zbek tili manbalari. Ularning til xususiyatlari.

"Devonu lug'otit turk" asari tili. Asarning tuzilishi. Mahmud Koshg'ariy – qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi.

Qoraxoniylar davri adabiy tilining yuzaga kelish sabablari. "Qutadg'u bilig" va "Hibatul-haqoyiq", "Devoni hikmat" asarlarining til xususiyatlari. Adabiy tilga arab, fors-tojik tillarining ta'siri masalasi.

Eski o'zbek tili fonetikasi. Unli va undoshlar tasnifi. Singarmonizm hodisasi.

Eski o'zbek tili morfologiyasi: ot so'z turkumi. Eski o'zbek tilida sifat, son, olmosh. Fe'l va ravish so'z turkumlari. Eski o'zbek tilida yordamchi so'zlar.

Eski o'zbek tilining sintaktik qurilishi: so'z birikmasi. Bir bosh bo'lakli va murakkablashgan gaplar. Eski o'zbek tilida qo'shma gaplar

XII – XIV asrlar adabiy manbalarining yangi adabiy janrlar hisobiga boyishi. "Qisasi Rabg'uziy" asarining til xususiyatlari. "Muhabbatnoma" hamda "Xusrav va Shirin" asarlarining lisoniy jihatlari. "O'g'uznoma" hamda "Tafsir" asarlarining tili.

Eski o'zbek adabiy tili rivojida Navoiygacha ijod qilgan turkiygo'y shoirlarning xizmatlari. Atoyi hayoti va ijodi. Shoirning lirik merosi: janr xususiyatlari va badiiyati. Sakkokiy hayoti va ijodining manbalari o'rganilishi. Adabiy merosi. Sakkokiy "Devon"i. Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Lutfiyning ijodiy faoliyati.

Alisher Navoiy - o'zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko'targan siymo. Bu davrda yaratilgan badiiy asarlar tiliga xos lisoniy normalarning vujudga kela boshlashi. Navoiyning davr adabiy muhitiga ta'siri, badiiy adabiyotni rivojlantirish borasidagi xizmatlari.

Bobur va Muhammad Solih asarlarining til xususiyatlari. "Boburnoma"da turli sohalarga oid so'zlarning ishlatilishi. XVII – XIX asrlar adabiy tiliga xalq so'zlashuv tilining ta'siri.

Adabiy til takomilida lug'at va grammatik asarlarning o'rni. Tarixiy lug'atlar va lug'atshunoslik masalalari. Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlar tavsifi. "Sangloh", "Kelurnoma" lug'atlari haqida ma'lumot.

XVII asr - XIX asrning birinchi yarmida o'zbek adabiy tili. Turk, chig'atoy, sart, o'zbek atamalarining qo'llanilish tarixi va ilmiy asoslanishi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o'zbek adabiy tili va milliy til tushunchasi. So'z o'zlashtirishning kuchayishi va ilmiy terminologiyaning mukammallashib borishi.

O'zbek adabiy tili rivojida ma'rifatparvarlarning o'rni. O'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar: leksika, grammatika hamda uslubdagi o'zgarishlar. O'zbek tili tarixini davrlashtirish xususida o'zbek tilshunoslari dunyoqarashi.



O'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar: leksika, grammatika hamda uslubdagi o'zgarishlar. Uslublarning shakllanishi va taraqqiyoti aks etgan manbalarni o'rganish.

## "O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI" FANI BO'YICHA FANIDAN MAVZULAR MAZMUNI

"O'zbek adabiyoti tarixi" kursi predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar.

Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida.

Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Turkiy xalqlar ijodkorlarining arab va fors tillarida ijod etishi.

XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Qoraxonlilar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Qoraxoniylar davri adabiyotida an'anaviylik va o'ziga xoslik.

"Devonu lug'otit-turk" – adabiy manba sifatida. "Qutadg'u bilig" hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibat ul-haqoyiq".

XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayot, madaniy muhit. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot. Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. Hayoti va ijodining o'raganilish tarixi. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. Tarjimai holiga doir ma'lumotlar.

Temur va temuriylar davrida o'tkazilgan madaniy islohotlar. Ilm-fan taraqqiyoti. Tarixnavislik. Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan asarlar. Atoyi hayoti va ijodi. Shoirning lirik merosi: janr xususiyatlari va badiiyati. Sakkokiy hayoti va ijodining manbalari o'rganilishi. Adabiy merosi. Sakkokiy "Devon"i. Lutfiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Lutfiyning ijodiy faoliyati.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Alisher Navoiyning lirik merosi. Devonlari. Ilk devon. Oqquyunli muxlislar devoni. "Badoyi' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya» devonlari. "Badoyi' ul-bidoya" debochasida devon tartib berish masalalari. "Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. "Devoni Foniy"ning tarkibiy tuzilishi, janr xususiyatlari, Devondagi g'azallar talqini.

Xamsanavislik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. Adabiyotshunoslik asarlari. "Mufradot" – muammo janriga bag'ishlangan asar. "Majolis un-nafois" - turkiy tildagi birinchi tazkira sifatida. "Mezon ul-avzon"da aruz nazariyasiga doir masalalarning yoritilishi. Alisher Navoiy – tilshunos. "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki til mubohasasi.

Tarixiy asarlari. “Tarixi muluki ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo” – mumtoz tarixnavislik manbasi sifatida.

Yodnomalar – memuar janrining yuksak namunasi sifatida. “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari. Tarixiy shaxslar talqini.

Bobur hayoti va adabiy merosining o‘rganilish tarixi. Shoir she’riyati, devonlari, badiiy mahorati. “Boburnoma”, “Risolai aruz”, “Volidiya” va “Mubayyin” asarlarining adabiy qimmati.

Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Tazkiranavislik. Tarixnavislik. Shayboniyxon hayoti va ijodi. Muhammad Solih ijodi. Xoja ijodi. Qul Ubaydiy merosi. Turdi ijodi. So‘fi Olloyor hayoti va asarlari. Mashrabning ijodiy merosi.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uning o‘ziga xos jihatlari. Abulg‘ozi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Nishotiy hayoti va ijodi manbalari. Hayoti va adabiy merosi. She’riy devoni va bayozlar. Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. O‘rganilish tarixi. Shoirning adabiy-ilmiy merosi. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni.

Qo‘qon xonligidagi madaniy hayot. Adabiy muhitning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Xo‘janazar Huvaydo hayoti va ijodi. Amiriy hayoti va ijodi manbalari. Gulxaniy hayoti va ijodi. O‘rganilish tarixi. She’riy merosi. Janrlar tarkibi. Uvaysiy hayoti va ijodi. O‘rganilish tarixi. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati.

Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyoti. Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910). Adabiy merosi. Shoir ijodini o‘rganish tarixidan. Ahmad Tabibiy (1969–1911). Hayoti va ijodi. Tabibiy va mumtoz adabiyot. “Majmuat ush-shuaro” tazkirasi. Lirik merosi. Muqimiy (1850-1903). Hayoti va adabiy merosi o‘rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Toshkentdagi hayoti (1887, 1892, 1899-yillar). Furqat (1859-1909). Tarjimai holi. Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqatshunoslik tadriji. Is’hoqxon Ibrat (1862-1937). Ma’rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Hayoti va ijodi.

Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919). Hayoti va faoliyatining o‘rganilish tarixi. Abdulla Avloniy (1878-1934). Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. To‘lagan Xo‘jamyorov - Tavallo (1883-1937). Adabiy merosining o‘rganilish tarixi. Sirojiddin Sidqiy (1884-1934). Shoir ijodining o‘rganilishi. Hayoti va ijodiy faoliyati. So‘fizoda (1880-1937). Hayot yo‘li va ijodiy merosining o‘rganilishi tarixi. Abdurauf Fitrat (1886-1938). Hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi, manbalari. Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929). Hamzashunoslik tadriji. Shoir ijodiga ikki xil yondashuv: sabablari, oqibatlari. Abdulla Qodiriy (1894-1938). Hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. “Baxtsiz kuyov” pyesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman – “O‘tkan kunlar”ning yaratilishi. “Mehrobdan chayon” romani. Cho‘lpon (1897-1938). Tarjimai holi. Jadidchilik va Cho‘lpon she’riyati. Shoirning o‘zbek she’r tizimidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. “Kecha va kunduz” romani.



### III. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazmuni va shakli.

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinov yozma shaklda o‘tkaziladi. Sinov uchun tayyorlangan biletlarning har birida uchta fandan uchta savol quyidagi tartibda beriladi:

| T/r | Fan nomi | Savol soni |
|---|---|---|
| 1. | Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari | 1 |
| 2. | O‘zbek tili tarixi | 1 |
| 3. | O‘zbek adabiyoti tarixi | 1 |

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o‘quv jarayoni jadvalida ko‘rsatilgan muddatlarda o‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan tayyorlangan, universitet o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida belgilangan vaqt va joyda o‘tkaziladi.

Talabaga Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida uchta savolga javob yozish uchun 3 akademik soat vaqt beriladi.

### IV. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida foydalaniladigan namunaviy savollar.

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida foydalaniladigan namunaviy savollar quyidagi tarzda biletga taqsimlanadi:

**“Tasdiqlayman”**
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____________ V.Nazarov

1-BILET

1. Matnshunoslik fanining tadqiq usullari.
2. Qadimgi turkiy tilda fe’l mayllari taraqqiyoti.
3. Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyoti.

### V. Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinoviga tayyorgarlik ko‘rish uchun bitiruvchilarga metodik ko‘rsatma.

Talaba sinovga tayyorlanish jarayonida Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari, O‘zbek tili tarixi, O‘zbek adabiyoti tarixi fanlaridan mazkur dasturda ko‘rsatilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishi, o‘quv dasturlaridagi mavzularni chuqur o‘rganishi zarur.

### VI. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholash mezonlari

Fanlararo Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida foydalaniladigan biletdagi har bir savol maksimum 100 balldan baholanadi.

| T/r | Fan nomi | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari | 0-40 |
| 2. | O'zbek tili tarixi | 0-30 |
| 3. | O'zbek adabiyoti tarixi | 0-30 |

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinoviga talaba faqat ruchka bilan kelishi shart. Turli adabiyotlar, shpargalkalar va texnik vositalardan foydalanish ta'qiqlanadi. Bu holat aniqlansa talaba imtihondan chetlashtiriladi va qoniqarsiz baho qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi jarayonida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

## FANLARDAN BAHOLASH MEZONLARI:

**90-100 ball ("5" baho)** olish uchun talaba har bir savolga aniq, nazariy asoslangan, o'z mustaqil fikriga ega, masalaga tanqidiy baho bera olishi, fikrlarini asoslash, dalillash, xulosalash malakasiga ega bo'lishi, qo'lyozma matnlarni to'g'ri tavsif qilishi, tahlil qilishi, matnga tanqidiy baho berishni bilishi kerak.

Shoirlar hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni aniq dalillar bilan yoritishi, olimlarning mavzu doirasida tayyorlagan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishgan bo'lishi lozim, ijodkor asaridan misollar keltirib, ularni tahlil qila olishi, she'r vaznlarini aniqlashi, badiiy san'atlarni topishi, berilgan savolga olimlarning nazariy fikrlariga tayanishi va o'z navbatida tanqidiy fikrlay olishi ham zarur.

Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, manbalardan misollar keltira olishi, ularni tahlil qilish qobiliyatiga egaligi, o'rganilayotgan davr manbalari fonetikasi, leksikasi, grammatikasini tahlil qila olishi, qo'yilgan nazariy muammoga ijodiy yondashib, uning mohiyatini tushunib, mustaqil ravishda mushohada yurita olishi, uni hal etish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.

**70-89 ball ("4" baho)** olish uchun uchun talaba nazariy bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan nazariy muammo mohiyatini tushunishi, amaliyotda qo'llay olmasa-da, tahlil usullarini farqlay olishi, o'z mustaqil fikriga ega, masalaga munosabat bera olishi, fikrlarini asoslash, dalillash, xulosalash malakasiga ega bo'lishi, qo'lyozma matnlarni to'g'ri tavsif qilishi, tahlil qilishi, matnga tanqidiy baho berishni bilishi kerak.

Shoirlar hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni yaxshi yoritishi, olimlarning mavzu doirasida tayyorlagan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishgan bo'lishi, lirik she'rlarni tahlil qila olishi, she'r vaznlari va badiiy san'atlarni topishi, berilgan savolga tanqidiy fikrlay olmasa-da, olimlarning nazariy fikrlaridan foydalanishi zarur.

Nazariy ma'lumotga ega bo'lishi, manbalardan misollar keltira olishi, ularni tahlil qilish qobiliyatiga egaligi, o'rganilayotgan davr manbalari fonetikasi, leksikasi, grammatikasini tahlil qila olishi, qo'yilgan nazariy muammoga mohiyatini tushunib, mushohada yurita olishi, uni hal etish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotda qo'llay olishi shart.



**60-69 ball ("3" baho)** olish uchun uchun talaba bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan muammoni tushunishi, amaliyotda qo'llay olmasa-da, tahlil usullarini farqlay olishi, masalaga munosabat bera olishi, fikrlarini xulosalash malakasiga ega bo'lishi, qo'lyozma matnlarni o'qishi va to'g'ri tavsif qilishi, tahlil qilishi, bilishi kerak.

Shoirlar hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlani qisman yoritishi, savol doirasida bajarilgan tadqiqotlar bilan qisman tanishgan bo'lishi, lirik she'rlarni tahlil qila olishi, she'r vaznlari va badiiy san'atlarni topishi, berilgan savolga tanqidiy fikrlay olmasa-da, olimlarning nazariy fikrlaridan foydalanishi zarur.

Savol doirasida ma'lumotga ega bo'lishi, manbalardan misollar keltira olishi, ularni tahlil qilish qobiliyatiga egaligi, o'rganilayotgan davr manbalari fonetikasi, leksikasi, grammatikasini bilishi, qo'yilgan nazariy muammoga mohiyatini tushunib, mushohada yurita olishi va fikrini bayon eta olishi kerak.

**0-59 ball ("2" baho)** olish uchun uchun talaba bilimga ega bo'lsa-da, qo'yilgan muammoni tushunmaydi, amaliyotda qo'llay olmaydi va asoslay olmaydi, tahlil usullarini chalkashtiradi, masalaga munosabat bera olishi, fikrlari xulosalanmagan yoki asoslanmagan, qo'lyozma matnlarni chala o'qiydi, tavsif qiladi, biroq tahlil qila olmaydi.

Shoirlar hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlani qisman yoritishi, savol doirasida bajarilgan tadqiqotlardan bexabar bo'lishi, lirik she'rlarni tahlil qila olishi biroq she'r vaznlari va badiiy san'atlarni yaxshi tushunmasligi, berilgan savolga tanqidiy fikrlay olmaydi va xulosalay olmaydi.

Savol doirasida ma'lumotga ega bo'lsa-da, manbalardan misollar keltira olmasa, ularni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lmasa, o'rganilayotgan davr manbalari fonetikasi, leksikasi, grammatikasini chala bilishi, qo'yilgan nazariy muammoga mohiyatini tushunib, mushohada yurita olmasligi hamda fikrini bayon eta olmasligi.

## VII. Apellatsiya komissiyasiga murojaat qilish tartibi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellatsiya komissiyasi raisiga yozma ravishda murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Apellatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

## VIII. Tavsiya etiladigan adabiyotlar yoki boshqa manbalar ro'yxati

### MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK (O'ZBEK TILI)


1. A.Habibullayev. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2000. – 172 b.
2. T.Zufarov. Xat ta'limi. –T.: Meriyus, 2010. – 275 b.
3. Sh.Sirojiddinov. Matnshunoslik saboqlari. – T.: "Navoiy universiteti" nasriyot matbaa uyi, 2019, –128 b.
4. Q.Sodiqov. Manbashunoslik va matnshunoslik asoslari. – TDShI, 2017. – 221 b.
5. Adabiyotshunoslik lug'ati (D.Quronov va boshqa.). – T.: Akademnashr, 2010. – 398 b.
6. A.Madraimov, G.Fuzailova. Manbashunoslik. – T. : Fan, 2007. – 295 b.
7. A.Murodov. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – T.: Fan, 1971. – 198 b.
8. A.Rustamov. So'z xususida so'z. –T.: Yosh gvardiya, 1987. – 156 b.
9. V. Rahmonov. Mumtoz so'z sehri. T.: O`zbekiston, 2015. – 440 b.
10. Д.С. Лихачев. Текстология. На материале русской литературы X–XVII в.в. –М. – Л.: Академии Наук СССР, 1962. – 602 с.
11. M.Hakimov. Sharq manbashunosligi lug'ati. – T.: Davrpress. NMU, 2013. – 496 b.
12. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P. Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 782 b.
13. P.Shamsiyev. O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – T.: Fan, 1986. – 163 b.
14. Q.Munirov. Sharq qo'lyozmalari. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962. – 38 b.
15. Омилянчук С.П.Текстология. httпс://дис.асадемис.ру/дис.нсф/политологй


### O'ZBEK TILI TARIXI


1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Тошкент, 2009.
2. Абдураҳмонов G'. Рустамов А. Qадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982
3. Абдураҳмонов G'., Шукуров Ш., Маҳмудов Q. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2008.
4. Мухторов Ж, Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Турсунов У, Ўринбоев Б, Алиев А., Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Abdushukurov B .Qadimgi turkiy til. – Toshkent, 2019.




### O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI


1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
2. Исоҳоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
3. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа. (1-2-жилдлар) Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Н.Раҳмонов. – Т.: Фан, 2005, 2007.
4. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. Монография. – Т.: "Мумтоз сўз", 2016.
5. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Сано – стандарт, 2018.
6. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т., 2006.
7. Qосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Т.: Маънавият, 2004.
8. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunodlik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018.
9. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Т.: TAMADDUN, 2016.
10. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
11. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 1-10 жилдлар. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 2011.
12. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жилдлар. –Т.: Фан, 1987-2003.
13. Воҳидов Р., Эшонқулов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
14. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 1-4 жилдлар. – Т.: Фан: 1977.